

“TASDIQLAYMAN”

“O‘zmilliybank” AJ

Toshkent shahar Bosh

Boshqarmasi boshlig‘i

G.S.Abidov

“O‘zmilliybank” AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Valyuta ayirboshlash shahobchalari faoliyatini muvofiqlashtirish va universal kassa amaliyotlarini nazorat qilish boshqarmasi xodimlari hamda Bosh boshqarma tasarrufidagi bank xizmatlari markazlarining Valyuta ayirboshlash va kassa amaliyotlari bo‘limi (sho‘basi) mudirlari ishtirokida kassa amaliyotlarida korrupsion xatarlar va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish hamda kassa va valyuta ayirboshlash shahobchalari faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari va Qonun osti xujjatlar orqali tartibga solish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan o‘quv seminari

BAYONNOMASI

2026 yil „15“ May

Toshkent shahar

Yig‘ilish raisi:

**Valyuta ayirboshlash shahobchalari
faoliyatini muvofiqlashtirish va
universal kassa amaliyotlarini nazorat
qilish boshqarmasi boshlig‘i D.A.Kamilov**

Qatnashdilar:

**Valyuta ayirboshlash shahobchalari faoliyatini
muvofiqlashtirish va universal kassa amaliyotlarini
nazorat qilish boshqarmasi xodimlari
hamda BXM kassa mudirlari.**

KUN TARTIBI

1. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston respublikasining Qonuni (N O‘RQ-419, 03.01.2017 y.)
2. Bosh boshqarma tasarrufidagi BXM va BXOlardagi mavjud universal kassalar va valyuta ayirboshlash shahobchalarining ish faoliyatida “Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir” Yo‘riqnoma (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 29 iyunda 3028-son bilan ro‘yxatga olingan) va “O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish Qoidalari” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2020 yil 31 avgustda 3281-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan) talablariga rioya qilinishi;
3. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat Qoidalari” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2017 yil 23 mayda 2886-son bilan ro‘yxatga olingan) talablariga rioya qilinishi;

Seminarni “O‘zmilliybank” AJ Toshkent shahahr Bosh boshqarmasi Valyuta ayirboshlash shahobchalari faoliyatini muvofiqlashtirish va universal kassa amaliyotlarini nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i **D.A.Kamilov** ochib berdi:

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston respublikasining Qonuni (N O‘RQ-419, 03.01.2017 y.) xaqida tushunchalar berildi. Jumladan, korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoillari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik, korrupsiyani oldini olishga doir chora-tadbirlar, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari xaqida ma‘lumotlar berildi.

D.A.Kamilov so‘zini davom ettirib, shaxsning shaxsiy manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar xaqida ya‘ni **manfaatlar to‘qnashuvi** bo‘yicha ham ma‘lumotlar berib o‘tdi.

Shundan so‘ng “O‘zmilliybank” AJ tasarrufidagi Komplayens tavakkalchiligi bloki, Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi **M.Sh. Maxmadazizov** so‘zga chiqib, BXM kassa mudirlariga xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan hamda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni o‘z vaqtida ko‘rish bo‘yicha quyidagi ko‘rsatmalarni berdi:

1. Mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas‘uliyatini kuchaytirish;
2. Xodimlar tomonidan ish faoliyati davrida oshirilayotgan har bir bank amaliyotlarini tegishli amaldagi me‘yoriy hujjatlar talablariga qat‘iy rioya qilgan holda amalga oshirish;
3. Kassa tarmog‘i xamda valuta ayirboshlash shahobchasi orqali milliy va xorijiy valyutadagi chiqim amaliyotlari, sotuv va xarid amaliyotlari, xorijiy valyutadagi xalqaro viza kartalar bilan amaliyotlar bajarilganda, amaldagi me‘yoriy hujjatlar talablari asosida jismoniy shaxslarning shaxsan o‘ziga yoki ularning qonuniy vakiliga, shuningdek yuridik shaxslarning qonuniy vakiliga pul mablag‘larini o‘rnatilgan tartibda berilishini ta‘minlash;
4. Xodimlardan doim halol ishlash, poraxo‘rlikga qarshi bo‘lishga, korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslikga, tamagirlik qilmaslikga, shaxsiy manfaatlar yo‘lida o‘z lavozimimdan foydalanmaslik bo‘yicha yozma majburiyatnomalarni olish;
5. Xodimlardan milliy yoki chet el valyutasi bilan ishlashda amaldagi me‘yoriy hujjatlarga zid ravishda amaliyotlar bajarilishi bilan aloqador takliflar, shuningdek rahbarlar tomonidan shu mazmundagi topshiriqlar bo‘lgan taqdirda, bu haqda zudlik bilan bank rahbariyati va bank xavfsizligi bo‘limiga axborot taqdim etish;
6. Mijozlar tomonidan taqdim etilgan naqd chet el valyutalarini normativ hujjatlarda belgilangan tartibda to‘lovga yaroqli, shikastlangan, to‘lovga yaroqsiz, inkassoga olish zarur bo‘lgan banknotalar toifasiga ajratish, bu haqida mijozlarga to‘liq va to‘g‘ri ma‘lumot berishga, shikastlangan valutalar bilan bank aylanmasidan tashqarida operatsiyalar amalga oshirmaslik;
7. Xar bir kassa va valyuta ayirboshlash amaliyotlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tegishli amaldagi xujjatlar bilan rasmiylashtirish va bankning tegishli tizim va dasturlarida o‘rnatilgan tartibda aks ettirish.

Shundan so‘ng, Valyuta ayirboshlash shahobchalari faoliyatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i **J.X.Djalaliddinov** so‘zga chiqib, BXM va BXOlardagi mavjud universal kassalar va valyuta ayirboshlash shahobchalarining ish faoliyatida “Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir” Yo‘riqnoma (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 29 iyunda 3028-son bilan ro‘yxatga olingan) va “O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish Qoidalari” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2020 yil 31 avgustda 3281-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan) talablariga rioya qilinishi bo‘yicha quyidagi ma‘lumotlarni berdi. Jumladan:

1. Kassa faoliyatida ishlarni to'g'ri tashkil etish, naqd pul mablag'larini, qimmatliklarni but saqlanishini ta'minlash va ular bilan ishlashda o'rnatilgan tartib qoidalarga rioya qilish;
2. Naqd pul mablag'larini talon-toroj qilmaslik hamda shu kabi salbiy holatlarga yo'l qo'ygan moddiy javobgar xodimlarga nisbatan tegishli choralar ko'rish yuzasidan BXM rahbariyatiga ma'lumotlar kiritish va bunday holatlarni oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rish;
3. Mijozlarga tez va sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida kassalarning moddiy texnik bazasi qayta inventarizatsiyadan o'tkazib, kerakli texniklar bilan ta'minlanishi va soz holatda bo'lishini nazoratga olish;
4. Kassadagi naqd milliy va chet el valyuta qoldiqlarini nazorat qilish, ayirboshlash operatsiyalarini bajarish uchun yetarli hajmdagi naqd milliy va chet el valyutalari bilan kassa oynalarini ta'minlash;
5. Bankdan tashqarida tashkil etilgan barcha kassalarni milliy va xorijiy valyutadagi mayda kupyuralar bilan ta'minlashni nazoratga olish;
6. Kassa xodimlariga O'zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlariga xususan, kassa faoliyatiga doir Markaziy bank ko'rsatmalarini va "O'zmilliybank" AJ Boshqaruvining qarorlarini bajarilishi yuzasidan doimiy texnik-iqtisodiy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazib borish;
7. "O'zbekiston Respublikasida bank kassalarida amalga oshirilgan kirim va chiqim amaliyotlarini tahlil qilishda foydalaniladigan kassa ramzlari" bo'yicha ma'lumotnoma talablariga mas'ul kassa xodimlari tomonidan rioya etilishini nazorat qilish;
8. BXMlarga qarashli ADMLar va bankomatlarni doimiy ishchi holatda bo'lishi, naqd pullar bilan yetarli miqdorda ta'minlanishi, bank binosidan tashqarida joylashgan bankomatlarni naqd pul bilan ta'minlashda hamda ADMLardan naqd pul malag'larini bank kassasiga kirim qilish bo'yicha inkassatsiya xizmati orqali yoki Milliy gvardiya xodimi kuzatuv ostida amalga oshirish;
9. Fuqarolar va bank mijozlariga xizmat ko'rsatish davomida universal kassa va valyuta ayirboshlash shaxobchasi xodimlari tomonidan kassa faoliyatining barcha xizmat turlari va qulayliklari to'g'risida tushuntirishlar hamda ularning savollariga to'liq javob bera olishlarini, o'z ishlariga malaka bilan yondoshishlari va mijoz bilan muomala va munosabatlarda odob axloq kodeksi talablariga to'liq rioya etilishi;
10. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasiga, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Markaziy bank va Bosh bankning "Ishonch telefonlariga" hamda fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri og'zaki va yozma murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning ijobiy hal etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shundan so'ng, **D.A. Kamilov** tomonidan "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat Qoidalari" (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2017 yil 23 mayda 2886-son bilan ro'yxatga olingan) talablariga rioya qilinishi takidlandi.

Ichki nazorat qoidalari bo'yicha mijozlarni lozim darajada tekshirish, amaliyotlarning mezonlari va alomatlari orqali gumonli va shubhali amaliyotlarni aniqlash, ma'lumotlar va hujjatlarni rasmiylashtirish, saqlash va maxfiyligini ta'minlash yuzasidan rahbar va xodimlarning javobgarligi haqida tushunchalar berildi. Jumladan, quyidagi gumonli va shubxali amaliyotlarning mezonlari va alomatlari haqida gapirib o'tildi:

1. Mijoz tomonidan amaliyot amalga oshirilish kuniga belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravariga teng yoki undan oshadigan umumiy summada bajarilayotgan amaliyotlarga o'xshash amaliyotlarning summalari asossiz taqsimlanishi;
2. Jismoniy shaxs tomonidan ayirboshlash kuniga belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravariga teng bo'lgan yoki undan oshadigan summada bir qiymatdagi banknotlarni boshqa qiymatdagi banknotlarga ayirboshlash;
3. Jismoniy shaxsning hisobvarag'idan amaliyot amalga oshirilish kuniga belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravariga teng yoki undan oshadigan summadagi pul mablag'larining naqd ko'rinishda yechilishi;
4. Jismoniy shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan bir vaqtda yoki ko'p marotaba 30 kundan oshmagan muddat davomida bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravariga teng yoki undan oshadigan umumiy summada chet el valyutasidagi pul mablag'lari sotilishi, sotib olinishi yoki xalqaro to'lov kartalaridan naqd pul ko'rinishida yechib olinishi;

5. Jismoniy shaxslar tomonidan bir vaqtda yoki 1 oydan oshmagan muddat davomida ko'p marotaba bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravariga teng yoki undan oshadigan umumiy summada Markaziy bankning qimmatbaho metallardan tayyorlangan tangalarini, o'leovli yombilarini sotib olinishi.

Seminar yakunida **D.A.Kamilov** kassa mudirlariga amaldagi Qonunlar, Nizomlar, Yo'riqnomalar, Qoidalar talablariga to'liq rioya qilishni, Markaziy bank, Bosh ofis tomonidan berilayotgan vazifa va topshiriqlarni o'z vaqtida samarali amalga oshirishni, mijozlar bilan xushmuomalada bo'lib, ular bilan ish faoliyati davrida shaffof munosabatda bo'lishini takidlatdi.

Shuningdek, xodimlar tomonidan qonunga va boshqa qonun osti hujjatlarga zid keluvchi hatti harakatlar sodir etilgan taqdirda xamda sodir etilayotgan hatti harakatlarni ko'ra turib harakatsizlik qilgan taqdirda, amaldagi qonunchilik doirasida belgilangan tartibda jazoga tortilishi va egallab turgan lavozimidan ozod qilinishigacha bo'lgan choralar ko'rilishi xaqida ogohlantirdi.

O'tkazilgan seminar yuzasidan qaror qabul qilindi:

1. Seminarda kassa faoliyatiga doir berilgan topshiriqlar ijro uchun qabul qilinsin;
2. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasining Qonuni (N O'RQ-419, 03.01.2017 y.) va Qonun osti xujjatlar bo'yicha barcha BXM va BXO kassir xodimlari o'rtasida texnik o'quv mashg'ulotlari xar chorakda eng kamida bir marotaba o'tkazilsin;
2. Mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas'uliyati kuchaytirilsin;
3. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha xodimlar o'rtasida tushuntirish ishlari tashkil etilsin;
4. Xodimlar o'rtasida korrupsion xolatlarga yo'l qo'ymaslik va ularni oldini olish bo'yicha choralar ko'rilsin;
5. "Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir" Yo'riqnama (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 29 iyunda 3028-son bilan ro'yxatga olingan), "O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish Qoidolari" (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2020 yil 31 avgustda 3281-son bilan ro'yxatdan o'tgan), "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat Qoidolari" (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2017 yil 23 mayda 2886-son bilan ro'yxatga olingan) hamda "O'zmilliybank" AJ Boshqaruvining 2021 yil 19 maydagi №74-sonli majlis bayoni va №579-son bilan ro'yxatga olingan "Kassa va valyuta ayirboshlash shaxobchalarida valyuta amaliyotlarini amalga oshirish tartibi" talablariga qat'iy amal qilinsin;
6. Xodimlar tomonidan ish faoliyati davrida amalga oshirilayotgan har bir bank amaliyotlari tegishli amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilsin;
7. Xodimlardan doim halol ishlashga, poraxo'rlikga qarshi bo'lishga, korrupsiyaga yo'l qo'ymaslikga, tamagirlik qilmaslikga, shaxsiy manfaatlar yo'lida o'z lavozimidan foydalanmaslik bo'yicha yozma majburiyatnomalar olinsin;
8. Milliy yoki chet el valyutasi bilan ishlashda amaldagi me'yoriy hujjatlarga zid ravishda amaliyotlar bajarilishi bilan aloqador takliflar, shuningdek rahbarlar tomonidan shu mazmundagi topshiriqlar bo'lgan taqdirda, bu haqda zudlik bilan bank rahbariyati va bank xavfsizligi bo'limiga axborot taqdim etilsin;
9. Kassa tarmog'i xamda valyuta ayirboshlash shahobchasi orqali milliy va xorijiy valyutadagi chiqim amaliyotlari, sotuv va xarid amaliyotlari, xorijiy valyutadagi xalqaro viza kartalar bilan amaliyotlar bajarilganda, amaldagi me'yoriy hujjatlar talablari asosida jismoniy shaxslarning shaxsan o'ziga yoki ularning qonuniy vakiliga, shuningdek yuridik shaxslarning qonuniy vakiliga pul mablag'lari o'rnatilgan tartibda berilishi ta'minlansin;
10. Xar bir kassa va valyuta ayirboshlash amaliyotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishli amaldagi xujjatlar bilan rasmiylashtirilsin va bankning tegishli tizim va dasturlarida o'rnatilgan tartibda aks ettirilsin;

11. Mijozlarga tez va sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida kassalarning moddiy texnik bazasi qayta inventarizatsiyadan o'tkazilib, kerakli texniklar bilan ta'minlanishi va soz holatda bo'lishi nazoratga olinsin;

12. BXM, BXOda va bankdan tashqarida joylashgan kassalar to'liq hajmda ish olib borishini ta'minlash maqsadida malakali kassirlar bilan bo'sh shtat o'rinlari to'ldirilsin;

13. Bankdan tashqarida tashkil etilgan barcha kassalar milliy va xorijiy valyutadagi mayda kupyuralar bilan ta'minlanishi nazoratga olinsin;


14. Kassalarda mijozlarga tez va sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida Valyuta ayirboshlash shahobchasi va universal kassa xodimlariga, sohaga mas'ullar hamda Bosh bosh boshqarma tasarrufidagi Valyuta ayirboshlash shahobchalari faoliyatini muvofiqlashtirish va universal kassa amaliyotlarini nazorat qilish boshqarmasi tomonidan texnik-o'quv mashg'ulotlari muntazam ravishda o'tkazib borilsin;

15. Qonunga va boshqa qonun osti hujjatlarga zid keluvchi hatti harakatlar sodir etilgan taqdirda xamda sodir etilayotgan hatti harakatlarni ko'ra turib harakatsizlik qilgan taqdirda, amaldagi qonunchilik doirasida belgilangan tartibda jazoga tortilishi va egallab turgan lavozimidan ozod qilinishigacha bo'lgan choralar ko'rilishi xaqida barcha xodimlar ogohlantirilsin;

16. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Valyuta ayirboshlash shahobchalari faoliyatini muvofiqlashtirish va universal kassa amaliyotlarini nazorat qilish boshqarmasi boshlig'i **D.A.Kamilovga** yuklatilsin.

Kiritildi:

**Valyuta ayirboshlash shahobchalari
faoliyatini muvofiqlashtirish va universal
kassa amaliyotlarini nazorat qilish
boshqarmasi boshlig'i**



D.A. Kamilov

**“O'zmilliybank” AJ
Komplayens tavakkalchiligi bloki,
Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish
bo'limi bosh mutaxassisi**



M.Sh. Maxmadazizov


Kelishildi:

Boshliq o'rinbosari



U.A. Abdimajidov

Majlis kotibi



N.B. Ikramova



